

QORAKO'LCHILIKNING RIVOJLANISH TARIXI

Rustamov B.I.

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti assistenti

bobir_rustamov@bk.ru

Aslonova N.R.

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada qorajo'lchilikni rivojlanish tarixi, qorako'l qo'ylarining kelib chiqishi, qorako'l qo'y zotlari to'g'risidagi olimlarning fikrlari bayon etilgan.

Kalit so'zlar. qorajo'l, qo'y zotlari, qorako'l teri, mo'yna, jun, go'sht maxsulotlari.

Аннотация. В данной статье изложена история развития каракуловодства, происхождение каракульских овец, мнения ученых о Каракульской породе овец.

Ключевые слова. каракуль, породы овец, шкура каракулья, мех, шерсть, мясные изделия.

Annotation. This article describes the history of the development of karakul breeding, the origin of karakul sheep, the opinions of scientists about the Karakul breed of sheep.

Keywords. karakul, sheep breeds, karakul skin, fur, wool, meat products.

Qorako'l qo'ylari – dunyoda eng ko'p tarqalgan qo'y zotidandir. Ular dunyoning 50 dan ortiq mamlakatlarda Osiyoda, Afrikada, Yevropada va Amerikada tarqalgan va yetishtiriladi.

Qorako'l qo'y zotining "qorako'l" deb nomlanishining ikki taxmini bor. Birinchisi, bu qo'ylar Buxoro viloyatining Qorako'l tumani hududlarida paydo bo'lib, shu hudud nomi bilan atalganligi taxmin qilinadi. Ikkinchisi, qorako'l qo'y zotlarining rangini, ilgarilari 95%ini qora rang, qolgan besh foizini sur, kulrang va rangli qorako'l barralari tashkil etar edi. Shuning uchun xalqimiz bu qo'yarning jingalaklariga, yaltiroqligiga, jozibadorligiga, guliga qarab, "qora gul" deb nomlagan degan taxmin bor. Keyinchalik bu "qora gul" nomi xalq tilida siyqalashib, shevalarga kirib ketib, "qorako'l" bo'lib ketgan deyishadi.

Qorako'l qo'y zotini tabiat mo'jizasi deb aytishadi. Bu qo'y zotlarining kelib chiqishi to'g'risida turli xil fikrlar mavjud. Qator yillar davomida uchta savolga javob berish borasida tortishuvlar boradi: qorako'l qo'ylari avvaldan bormi yoki yangi chiqarilgan zotlardanmi?, Qorako'l qo'yalarining vatani

qayer?, O'rta Osiyomi yoki ikki daryo oralig'i deb nomlangan voha hozirga Iroqmi va u yerdan qorako'l qo'ylari VII asrda arablar tomonidan O'rta Osiyoga olib kirlganmi?, uchinchi savol – qorako'l barralarida paydo bo'lgan jingalaklar mutatsiya natijasimi, turli nasllarni chatishtirish natijasimi yoki tabiat in'om etgan mo'jisimini?

Maxsus adabiyotlarda qorako'l qo'ylarining azaldan kelib chiqqan qo'y zoti ekanligi keltiriladi. Bunday xulosalarning kelib chiqishiga asosiy sabab, arxeologik qazilmalar vaqtida sopol buyumlarda qo'y va qo'zichoqlarning rasmi, odam va hayvonlarning haykalchalarini topilganligidir.

Muallif W. YE. Traler (1963) jingalak junli barralarni beruvchi qo'y zoti 4600 yil ilgari bo'lgan deb hisoblaydi. U bunday xulosaga Yevfrat daryosining quyi oqimi yon bag'irlari Urukda (hozirgi Iraq) olib borilgan arxeologik qazilma ishlari natijvsida topilgan sopoldan yasalgan g'o'la shaklidagi aylana va o'tkir burchakli uchburchaklarning rasmi tushirilgan sopoldan yasalgan plitkalarning topilganidan keyin keldi. Bu rasmlar tadqiqotchi olimlar fikri bo'yicha barra terilarining jingalakligidir. Bu topilmalarning barchasi eramizdan avval 2650 – yil sanasi bilan belgilangan.

Tarixchi – arxeolog Dyurst 8000 yil oldin bo'lgan Anan qo'ylaridan qorako'l qo'ylari kelib chiqqan degan fikrni bildiradi. U o'z fikrini Anau shahri (hozirgi Ashhabod shahri yaqinida) qazilmalaridan topilgan qo'y suyaklarining tahlil qilinishidan kelib chiqib aytgan.

Muallif R. M. Franke (1973) ham Dyurstning fikrini ma'qullab, semiz dumli qo'ylar, ularga jingalak junli qorako'l qo'ylari ham kiradi, eramizdan avval 2650 – yillarda paydo bo'lgan deydi. Jumladan, Frank Lagash mamlakati boshqaruvchilarining topilgan haykalchalarida (eramizdan avvalgi 2040 – 2000 yillar) ularning bosh kiyimi qorako'l terilaridan bo'lganligini e'tirof etadi.

Ko'hna Yegipetda, eramizdan avvalgi 2000 yillarda, jingalak junli barra terilari modada bo'lgan, semiz dumli qo'ylar esa Yegipetga Siriyadan olib kelingan degan fikrlar mavjud.

Eramizdan 500 yil oldin Persipolisda, hozirgi Eronning janubida, semiz dumli qo'ylarning va jingalak junli barralarning tog' qoyalarida chizilgan rasmlari topilgan.

Xivada yetishtirilayotgan va ko'paytirilayotgan dag'al junli, semiz dumli qo'ylar haqida arab geografi va sayyohi Ibn Xa Kal shunday deb yozadi: "Dunyoning biror bir mamlakatida Turkistonda yetishtirilayotgan qo'y zotidek qo'y yo'q. Turkiston xalqи ikitadan ortiq tug'ilgan barrani so'yadi. Bu holatga cho'l sharoitida qo'ylarning ikitadan ziyod bo'lgan barralarni boqa olmasligi oqibatida so'yiladi, deb qarash mumkin ". Ibn Xa Kal qorako'l barralari terilarining rangiga ahamiyat beradi va ularning ajabtovr

tovlanshlarini, rasmlarining mo'jizakorligini ta'rif etadi. Lekin barra terilari qanchalik chiroyli, bejirim bo'lishiga qaramasdan, qorako'l qo'ylarini ko'paytirishdan asosiy maqsad ulardan barra terilarini olish emas, balki qo'y sonini ko'paytirish, xalqni go'sht bilan ta'minlash, qolin to'qish uchun ko'p miqdorda jun olish kabilar bo'lgan.

Olim H. Hornitschek (1939) fikriga ko'ra qorako'l qo'ylari Osiyoda (Mongoliya, Eron), Afrikada (Siriya, Efiopiya, Somali) yetishtiriladi.

I. F. Longle (1915) dag'al junli, semiz dumli qo'ylar Markaziy Osiyoda va yaqin Sharqda yetishtirilishini yozgan.

Muallif R. M. Franke (1973) 1530 – 1605 yillarga taaluqli bo'lgan ma'lumotlarni keltiradi. Bu ma'lumotlarga ko'ra hindistonning bir viloyatida noyob va ajobtovur terilarga ega bo'lgan qo'ylar yetishtirilishini va bu qo'ylar "sur" deb nomlanishini keltirgan. "Sur" nomi Hindistonning sur deb nomlangan sulolasiga bag'ishlangan bo'lib, "bronza" ma'nosini anglatadi. Hozirga zamon sur terilarining yuqorida aytigan "sur" qo'ylariga hech qanday aloqasi yo'q, deb taxmin qilinadi. Shu muallifning ishlarida 1620 – yilga mansub bo'lgan ma'lumotlarni ko'rish mumkin. Unda aytishicha, Xuroson hududida juda chiroyli mo'ynaga ega bo'lgan barralar borligi qayd etilgan. Ular qora, kul rang, qordek oppoq ranglarga ega deb yozilgan. Mo'ynalar barralarning bosh qismiga qarab o'ralgan jingalaklardan iborat. Ba'zi bir kulrang terilar junining uchki qismi oqroq rangga ega bo'ladi, bu esa terilarga alohida maxsus yaltiroqlikni beradi. Boshqa bir terilar esa uchki qismida marjon kabi tovlanishga ega.

Jingalak mo'ynali barra terilarini beradigan Buxoro ko'ylarining nasli haqidagi ma'lumotlar 17 asr boshlarida paydo bo'ldi.

17 asr boshlarida Buxoroda xalq Buxoro qo'ylarining terilaridan tikilgan bosh kiyimlarida yurishgan. Qorako'l qo'zi terilari Buxoroga Xiva xonligi elchilari tomonidan ham keltirilar edi. Ular turli ranglarga ega bo'lib, soni jihatdan juda kam bo'lgan.

Buxorodan Sibirga (Kyaxtaga) har yili 7500 ga yaqin barra terilari chiqarilgan.

Buxorodan olib borilgan kul rang terilar, qora rangli terilarga nisbatan qimmatroq hisoblangan. U paytda buxoro Qorako'l terilari o'zining sifati bo'yicha uncha yaxshi emas edi.

Mo'yna terilarida ularning maydoni, jun qismining issiqlikni saqlash xususiyatlariga katta e'tibor berilardi.

Mo'yna terilaridan tikilayotgan mahsulotlarda terilar jun qismi tashqariga qilib tikish rivojlangandan keyin terilarning jun qismi bo'yicha bo'linishi, navlanishi paydo bo'ldi va terilar rangi, junining balandligi, tipi, jingalagining

uzunligi, eni bo'yicha va boshqa ko'rsatkichlar bo'yicha bo'lina boshlandi. Shunda terilarni baholovchilar, tanlovchilar, navlarga ajratuvchilar paydo bo'la boshladi. Kundan – kunga mo'yna terilariga bo'lgan talablar shakllana boshladi. Bu talablar, albatta qo'ylarni yetishtiruvchi cho'ponlargacha yetib bora boshladi va ular o'z ishlarida qo'yilayotgan talablarni e'tiborga olib bordilar. Shundan keyin seleksiya ishlariga, naslni yaxshilash ishlariga, terilar sifatini oshirishga, qo'ychilik samarasini oshirishga harakat qildilar va katta natijalarga erishdilar.

Ana shu tarzda Buxoro qorako'l qo'yalarini yetishtirish ishlari olib borildi.

Asta – sekinlik bilan dunyodagi mo'yna bozorlariga Buxoro qorako'li kirib bordi va kommersantlar tilida "Buxoro qorako'li" termini paydo bo'ldi.

Buxoro qorako'li o'zining chiroyi, mo'jizakorligi, takrorlanmas rangi va rasmlari bilan dunyo bozorini zabit etdi va eng mashhur mo'ynali terilar qatorida yetakchi o'rinni egalladi.

XIX asr oxirlari va XX asr boshlarida qorako'l qo'yalaridan olinayotgan 90% barra terilari qora rangga ega edi. Ichki va tashqi bozorning rivojlanishi, mo'yna terilariga bo'lgan katta talab, yuqori narxlar, umuman olganda iqtisodiy omillar qorako'l qo'yalaridan olinayotgan barra teri ranglarini ko'paytirishga, ya'ni kul rang va sur rang terilar sonini ko'paytirishga olib keldi.

Buxoro qorako'li Buxoro amirligi hududida yetishtirilardi. Keyinchalik esa qo'shni xonliklar va viloyatlarda ham yetishtirila boshlandi. Bu esa o'z navbatida qorako'l qo'yalarining populyatsiyasiga olib keldi.

Ana shu tarixiy ma'lumotlarni inobatga olib, biz qorako'l terilarini ko'hna – tarixiy qo'y zotlaridan ekanligini va uning vatani O'rta Osiyo ekanligini ta'kidlashimiz mumkin.

Hozirgi vaqtida mamlakatimiz hududida juda kuchli rivojlangan qorako'lchilik xo'jaliklari ko'r. Ular qo'y tuyoq sonini ko'paytirish, teri ranglarini yaxshilash, teri sifatini oshirish, navlarini yaxshilash, naslni kuchaytirish, go'sht – yog' miqdorini, jun miqdorini, teri sonini ko'paytirish kabi yo'nalishlarda katta ishlarni olib bormoqdalar va juda yaxshi natijalarga erishmoqdalar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- Хайитов А. А., Рустамов Б. И. Разработка технологии получения коллагеновых препаратов и мездровых клеев из отходов кож в производственных условиях //Вестник науки. – 2022. – Т. 3. – №. 4 (49). – С. 86-93.

2. Рустамов Б. И., Шамсиева М. Б. Ресурсосберегающая жирующая вещества для жирования каракуля //E Conference Zone. – 2022. – С. 35-39.
3. Хайтов А. А., Рустамов Б. И., Якубов М. Э. Исследование и разработка коллаген полимерных композиций на основе отходов кожевенного сырья Research and development of collagen of polymeric compositions based on waste of rawleather //современные инженерные проблемы в производстве товаров народного потребления. – 2019. – Т. 29. – С. 70.
4. Шамсиева М. Б., Рустамов Б. И. ҚОРАҚҮЛ МҮЙНА ЯРИМАХСУЛОТИНИ ИҚТИСОДИЙ ВА ЭКОЛОГИК САМАРАДОР ЁҒЛАНТИРИШ ТЕХНОЛОГИЯСИ //GOLDEN BRAIN. – 2023. – Т. 1. – №. 21. – С. 38-45.
5. Отамуродов Ж. О. РЕШЕНИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ПРОБЛЕМ В КОЖЕВЕННОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ //SCHOLAR. – 2023. – Т. 1. – №. 11. – С. 20-28.
6. Отамуродов Ж. О. СОСТАВ КОСТЕЙ КРУПНОРОГАТОГО СКОТА ДЛЯ ПРОИЗВОДСТВА ОРГАНИЧЕСКОГО КЛЕЯ //GOLDEN BRAIN. – 2023. – Т. 1. – №. 15. – С. 171-176.
7. Хайтов А. А., Рустамов Б. И., Якубов М. Э. RESEARCH AND DEVELOPMENT OF COLLAGEN OF POLYMERIC COMPOSITIONS BASED ON WASTE OF RAWLEATHER //Современные инженерные проблемы в производстве товаров народного потребления. – 2019. – С. 70-75.